

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MUXAMMEDOV MAXSUD MURODOVICH

**INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNI ZAMONAVIY
MEXANIZMLARI VA ULARNING TARAQQIYOTDAGI AHAMIYATI
MASALALARINING FALSAFIY TAHLILI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO`YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

<https://buxdu.uz>

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Muxammedov Maxsud Murodovich

Inson kapitalini rivojlantirishni zamonaviy mexanizmlari va ularning
taraqqiyotdagi ahamiyati masalalarining falsafiy tahlili 5

Мухаммедов Махсуд Муродович

Современные механизмы развития человеческого капитала
и философский анализ вопросов их значения в прогрессе 23

Mukhammedov Makhsud Murodovich

Modern mechanisms for the development of human capital and philosophical
analysis of issues of their significance in progress 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MUXAMMEDOV MAXSUD MURODOVICH

**INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNI ZAMONAVIY
MEXANIZMLARI VA ULARNING TARAQQIYOTDAGI AHAMIYATI
MASALALARINING FALSAFIY TAHLILI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida : B2023.2.PhD/Fal985 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar

Xuseynova Abira Amanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xajiyeva Maqsuda Sultanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Saifnazarov Ismoil
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil “10” yanvar soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (409 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “29” dekabr kuni tarqatildi.

(2023 yil “29” dekabr dagi 29 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Navro‘zova G. N.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipova O.T.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari dunyo hamjamiyati oldiga inson omiliga har qachongidan ham ko‘ra ko‘proq e‘tibor qaratishni dolzarb muammolar qatoriga qo‘ymoqda. Inson kapitali rivoji nafaqat iqtisodiyot, balki butun jamiyatning yangi sifatini shakllantirishda muhim omil bo‘lib, milliy va ijtimoiy etnik xususiyatlar asosida uning mohiyati, rivojlanib borish tendensiyalari hamda turmush barqarorligi masalalarini hal etish talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, inson kapitalini yuksaltirish, ta‘lim va ilm-fanni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, aholini, ayniqsa yoshlarning salomatligini mustahkamlash, madaniy va ma‘rifiy ongini yuksaltirishda zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlarda ilgari surilgan intellektual, ta‘lim, axloqiy, ijtimoiy kapital omillarini taraqqiyot strategiyalariga moslashtirish hamda inson kapitalining komponentlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani hamda yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida inson kapitali muammosi, inson kapitalini yuzaga chiqarishning biologik va ta‘lim sifati, ilmiy salohiyat, sog‘liqni saqlash tizimi kabi indikatorlariga doir innovatsion tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bois inson kapitalini mamlakat ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib yaratish, uni har tomonlama rivojlantirishning ijtimoiy mexanizmlarini joriy qilish, bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasi ustuvor yo‘nalishlar qatoriga qo‘yilmoqda. Ayniqsa, rivojlanish va barqaror taraqqiyotni ta‘minlashda inson kapitalining madaniy-axloqiy, ta‘lim, intellektual omillarini hamda inson kapitalini rivojlantiruvchi ijtimoiy institusional tizimlarning funksiyalari, yoshlarning mas‘ulligi, daxldorligini oshirish, taklif-tashabbuslariga keng yo‘l ochish, barqaror ma‘naviy muhitni barpo qilish kabi dinamik ko‘rsatkichlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

O‘zbekistonda qonun ustuvorligi va inson kapitalini rivojlantirish, adolatli va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, aholining yashash sharoitlarini yanada yaxshilash yo‘nalishlarida islohotlarni amalga oshirilmoqda. “Yangi O‘zbekiston strategiyasining maqsadi – yurtimizning baxtli va barkamol insonlar farovon yashaydigan, ijtimoiy adolat tamoyillari to‘liq qaror topgan, dunyoning eng rivojlangan, barqaror o‘sayotgan va inson kapitali yuqori bo‘lgan demokratik davlatlari qatoridan joy olishini ta‘minlashdir. Buning uchun aholining barcha qatlamlariga munosib hayot darajasini va turmush sharoitlarini yaratib berish, ijtimoiy himoya tizimi samarasi, bandlik va daromadlar barqaror o‘shishiga erishish, jamiyatning umumiy madaniyati, bag‘rikenglik va mehribonlik fazilatlarini yanada oshirish bo‘yicha olib borayotgan ezgu va savobli ishlarimizni yanada kuchaytirishni o‘zimizning burchimiz, deb hisoblaymiz”¹. Shu uchun Yangi O‘zbekistonni инсон капитали юқори бўлган демократик давлатлар қаторидан ўрин олишини таъминлашда inson kapitalini rivojlantirishning milliy modelini yaratish, inson kapitalining barqaror rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, – 2021. – Б.264.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 25-iyuldagi PF-175 son “O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2019-yil 25-fevraldagi PQ-4210-son “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 18-maydagi PQ-246-son “Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg‘unligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 21-fevraldagi 83-son “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Inson kapitaliga oid masalalar va u bilan bog‘liq ijtimoiy muammolar soha mutaxassislari tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy, etnopsixologik, huquqiy hamda ma‘naviy-siyosiy nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. XX asr fanining yorqin namoyondalari D.Tomson va X.Bekker “sotsial shartnoma” nazariyasi, Xose Ortega-Gasset, K.Mangeym, P.Burde, I.Gofman, I.Kon, T.Shanin hamda P.Nora² kabi olimlarning inson kapitalini sotsial fenomen sifatida rivojlanib borishini ijtimoiy etnik yondashuvlar tizimida, ijtimoiy-madaniy kontekstda tadqiq etganlari bunga misol bo‘la oladi. Shuningdek, inson kapitali XX asrning 60-yillaridan boshlab mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida iste‘molga kiritildi. Qolaversa, Xalqaro Nobel mukofoti sohiblari – T.Shuls va G.Bekker, qolaversa D.Bellning bir qator asarlarida ushbu masalaga alohida e‘tibor qaratila boshlandi³.

² Becker H. Discontinuous change and generational contracts. – London, 2000; Kohli M. Aging and justice. Research group on aging and life course. Research Report 74. – Berlin, 2005; Thomson D. Selfish generations. The ageing of the welfare state. – Wellington, 1989; Ортега-И-Гассет. X. Восстание масс. – М.: АСТ Москва, 2008. – С. 249-347; Гофман И. Представление себя другим в повседневной жизни. – М.: Канон пресс, 2006; Бурдые П. Социология социального пространства. – М.: Алетейя, 2007. – С. 80-278; Шанин Т. История поколений и поколенческая история / Отцы и дети: поколенческий анализ современной России. – М., 2009. – С. 17-38; Ортега-и-Гасет X., Маннгейм К. Очерки социологического знания. Теория познания – мировоззрение – историзм. – М., 1998. – С. 84-85.

³ Schulz T. Capital Formation bi Edukathion // Journal of Politikal Economu. – 1960. – №1. – R. 25., Ўша муаллиф: Investment in Human Capital // American Economic Reviен. – 1961. – №1.; Беккер Г.С. Человеческое поведение:

Inson farovonligi va rivojlanish indeksi (Human development index, IFPI) standart o'lov sifatida turli hudud va mamlakatlar hayoti o'lov hisoblanib, uning natijalari ilmiy maqolalar hamda statistik to'plamlarda aks etadi. Ijtimoiy kapital sotsial fenomen sifatida E.Smit, J.Terner va T.Kun⁴ kabi olimlar tomonidan inson omili masalalari bilan bog'langan holda, B.Anderson M.Fukolar⁵ tomonidan etnomadaniy munosabatlarni insonlar madaniy hayoti, turmush tarzidagi sotsial muammolar bilan uyg'unlikda, T.Lukman va P.Bergerlar⁶ bo'lsa yaxlit sotsial organizm sifatida, M.Mid, E.Eriksen, P.Millslar⁷ mentalitet doirasida, K.Levin, S.Shulman va P.Alterlar tomonidan esa milliy-etnik jarayon tarzida tahlil qilingan.

MDH mamlakatlarida inson kapitali mavzusining iqtisodiy-demografik jihatlari E.Galayeva, A.Dobrinin, S.Dyatlov, E.Serenova va P.Karelyushnikov⁸, ijtimoiy-madaniy tomonlari S.Abashin, V.Achkasov, Yu.Granin, L.Russkix, K.Tuayeva, N.Antonova, N.Jukova hamda T.Stefanenko⁹ kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida identiklikning jamiyatda o'zlikni anglash, ijtimoiy-madaniy tajriba, madaniy-tarixiy xotira va ijtimoiy-madaniy meros bilan bevosita aloqador jihatlari o'rganilgan.

O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish va uning iqtisodiy fanlar tizimidagi ahamiyati bo'yicha S.G'ulomov, Q.Abdurahmonov, J.Ataniyazov, T.Jalilov, B.Usmonovlar¹⁰ keng ko'lamli tadqiqotlar olib bormoqdalar. Shuningdek, K.Shoniyozov, A.Ashirov, U.Abdullayev va N.Nazarovlar¹¹ ilmiy ishlarida o'zbek

Экономический подход: избранные труды по экономической теории. – М.: ГУ ВШЭ, 2003. – С. 672.; Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. – М.: Academia, 1999. – С. 949.

⁴ Смит Э. Национальная идентичность. – Москва: Основы, 1994; Кун Т. Структура научных революций. – М., 2009; Тернер Дж. Структура социологической теории. – Москва: Прогресс, 1985.

⁵ Фуко М. Археология знания. – СПб.: Университетская книга, 2004; Андерсон Б. Воображаемые сообщества. Размышление об истоках и распространении национализма. – М.: Канон-пресс, 2001.

⁶ Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания. – Москва: Медиум, 1995. – С. 323.

⁷ Миллс Р. Властвующая элита. – Москва: Издательство иностранной литературы, 2010 / Перевод с англ. Е.И. Розенталь, Л.Г. Рошаль и В.Л. Кон. – С. 406.; Мид М. Культура и мир детства / Избранные произведения. – М., 1988; Э.Эрикссон. Идентичность: юность и кризис. – М.: Владос, 1996. – С. 326.; Мид М. Культура и преемственность. Исследование конфликта между поколениями. Культура и мир детства. Избр. произв / Пер. с англ. – Москва: Наука, 1988.

⁸ Галаева Е. В. Исследование человеческого капитала в зарубежной литературе: реферат книги Орда Нордхога «Человеческий капитал в организациях» // Общество и экономика. – 1997. – №7-8. – С. 244-255; Добрынин А. И., Дятлов С. А., Циренова Е.Д. Человеческий капитал в транзитивной экономике: формирование, оценка, эффективность использования. – СПб.: Наука, 1999; Коулман Дж. Капитал социальный и человеческий // Общественные науки и современность. – 2001. – №3. – С. 122–139; Цапенко И. В., Миронова Д. Д. Человеческий капитал и инновационные факторы его развития // Инженерный вестник Дона (Ростов-на-Дону). – 2012. – №2. – С. 153-163; Беленкова О. А. Роль социальных технологий в формировании инновационного потенциала человеческого капитала // Российский гуманитарный журнал. – 2017. – №3. – С. 271–282;

⁹ Русских Л. Идентичность: культурная, этническая, национальная. // Вестник ЮУрГУ. Серия «Социально-гуманитарные науки. – 2013. – С. 178-180, Туаева К. Философские основы национальной идентичности // Вестник университета МГУ. – 2014. – С. 287-292; Ачкасов В. Национальная идентичность как исторический нарратив. // Управленческое консультирование. – 2018. – №10. – С. 19-26;.

¹⁰ Гулямов С., Очилон Н., Сайдахмедов О. Интеллектуал иктисодиёт самарадорлик омиллари // Ўзбекистон иктисодий ахборотномаси. – 2015. – №6. – Б. 38-41; Абдурахмонов К.Х. Человеческое развитие. Учебник. – Ташкент: ФГБОУ ВО РЭУ им. Г. В. Плеханова, 2014. – С. 320.; Атанязов Ж.Х., Жалилов Т. Роль человеческого капитала в инновационном Развитии экономики // Халқаро молия ва ҳисоб. – 2019. – №2. – С. 1-9; Усмонов Б. Ш. ва бошқ. Инсон капиталининг шаклланишида таълим ва илм-фаннинг роли (илмий-оммабоп рисола). – Самарқанд: СамДУ, 2015. – Б. 83.

¹¹ Шонийзов К. Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 86.; Аширов А.А. Ўзбек халқининг қадимий этикод ва маросимлари. – Тошкент, 2007. – Б. 275.; Абдуллаев У.С. Фағона водийсида

xalqining shakllanish jarayonlari, etnoslararo jarayonlar tarixini o'rganish asnosida hudud aholisining ma'naviy madaniyat sohasidagi etnoslararo munosabatlari o'rganilgan. Inson taraqqiyoti, inson kapitali, inson farovonligi, salomatligi, ijtimoiy-madaniy rivojlanishni ochib berishga ijtimoiy-falsafiy qarashlar I.Saifnazaov, N.Shermuxamedova, N. Jo'raev, Q.Nazarov, D.Norqulov, S.Choriyev, A.Sharipov fikr-mulohazalari va ilmiy ishlarida kuzatiladi¹².

Inson kapitali, uni shakllantirish, inson taraqqiyoti mamlakatni rivojlantirish strategiyalarining inson kapitalidagi ahamiyatini tadqiq etish jarayonida nomlari qayd etilgan va boshqa o'zbek, jahon olimlarning ilmiy ishlaridan unumli foydalanildi. Dissertasiyada ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlardan farqli ravishda, inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish hamda zamonaviy mexanizmlarini aniqlashga e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish hamda zamonaviy mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari

"Inson kapitali" fenomenining mazmun-mohiyati, tushuncha va qonuniyatlarini tadqiq etish, uni ijtimoiy hodisa sifatidagi konseptual jihatlarini aniqlash;

inson kapitalini milliy va etnomadaniy xususiyatlari, metodologik asoslari va o'zgarib borish tendensiyalarini ochib berish;

inson kapitalining rivojlanish dinamikasi va davriy transformatsiyalashuv xususiyatlarini tadqiq etish;

Yangi O'zbekistonda aholining ijtimoiy-iqtisodiy hamda demografik holati va uning inson kapitali shakllanishidagi o'rnini tadqiq etish;

inson kapitali va uning etnoijtimoiy jarayonlardagi xususiyatlari, ta'lim hamda sog'liqni saqlash tizimining ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyalashuvdagi o'rnini tadqiq etish;

inson kapitali ko'rsatkichlarining identifikatsion tahlili, ijtimoiy dinamikasi va uning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

этнослараро жараёнлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 143-202; Назаров Н. Марказий Осиёда миллатлараро муносабатлар (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Монография. – Тошкент: Global Books, 2018. – Б. 256.

¹² Саифназаров И., Мухтаров А. Фалсафа. –Т.: Iqtisodiyot, 2021, - 366 б.; Шермухамедова Н., Тюкмаева А. М. Барқарор ривожланиш ва хавфсиз таълим орасидаги ўзаро алоқалар. // Falsafa va hayot. 2022 №1(16). Тошкент. –Б. 9-30.; Жўраев Н. Тамаддунга даъват тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 264 б.; Назаров Қ. Фалсафа асослари. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2018. – 380 б.; Норқулов Д. Фуқаролик жамияти ва ижтимоий онгда трансформация жараёнлари. – Тошкент: Наврўз, 2015. – 178 б.; Чориев А., Чориев С. Миллий истиқлол мафқураси ва баркамол инсон шахсини шакллантириш. Тошкент: Чўлпон, 2005. – Б. 224.; Шарипов А.З. Янги Ўзбекистонда маънавий-мафқуравий ислохотлар трансформациясининг ижтимоий-фалсафий таҳлили: Фалс.ф.д. дисс. –Бухоро: БухДУ, 2021. – Б. 257.

Tadqiqotning obykti sifatida inson kapitalini tadqiq etishga doir ijtimoiy-falsafiy nazariya va konsepsiyalar, uni rivojlantirish jarayoni va zamonaviy mexanizmlari tanlab olingan.

Tadqiqot predmeti O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish omillarini, ijtimoiy institusional tizimlarning samaradorligini oshirishning zamonaviy mexanizmlarini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, korrelyatsion tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

inson kapitalini rivojlantirish va barqaror taraqqiyotga erishishda zamonaviy umummetodologik, gnoseologik qarashlar va yondashishlarda berilgan intellektual, ta’lim, axloqiy, ramziy va ijtimoiy kapital omillarning Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot asoslariga moslashtirish darajalari (shaxslar, ijtimoiy guruhlar, davlat) hamda o‘zaro sherikchilik, birlashish, inson salohiyati, ehtiyoj kabi komponentlari aniqlangan;

Yangi O‘zbekistonda aholi turmush tarzining farovonlashuvi hamda ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy birdamlikdan iborat o‘ziga xos munosabat shakllarining amal qilishida inson kapitalini rivojlantirishning (inson kapitalini rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish, ta’lim-tarbiyaga investitsiyalar kiritish, zamonaviy kasb-hunarga qiziqtirish, mehnat bozorida raqobatbardosh soha mutaxassislarini bilim va ko‘nikmalarini optimallashtirish, milliy inson kapitali o‘lchovini aniqlash metodologiyasini ishlab chiqish yo‘nalishlari asosida) ijtimoiy modelini yaratish zarurati asoslab berilgan;

rivojlanish va barqaror taraqqiyotni ta’minlashda ijtimoiy harakat, ijtimoiy munosabatlar, uzoq va sog‘lom umr ko‘rish, hayot farovonligi standartlarining katolizator sifatidagi o‘rni inson kapitalining madaniy-axloqiy, salomatlik (biofizik), mehnat, ta’lim, intellektual va tashkiliy-tadbirkorlik kapitali omillari bilan bog‘liqligi isbotlangan;

inson – jamiyat – davlat imkoniyatlari (shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari, ijtimoiy xarakterdagi intiluvchanlik, ijtimoiy institutlar) inson kapitalini rivojlantiruvchi ijtimoiy institusional tizimlarning ijtimoiy-ma’naviy sohada tizimlilikni ta’minlash, islohotlar samaradorligini oshirishda yagona maqsad, milliy g‘oya yo‘lida jipslashtirish, milliy taraqqiyot borasida yoshlarning mas’ulligi, daxldorligini oshirish, taklif-tashabbuslariga keng yo‘l ochish, xotin-qizlarning tashabbus va faoliyati qadrlanadigan ma’naviy-huquqiy muhitni barpo qilish kabi dinamik ko‘rsatkichlarda ifodalanishi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

inson kapitalini tavsiflashda “ijtimoiy faoliyat” yondashuvi asosida uning shaxs hamda jamoalarning ehtiyoj va qobiliyat ko‘rsatkichlari inson kapitalini rivojlantiruvchi omillari ekanligi dalillangan;

inson kapitali rivojining hududiy komponentlari, etnomadaniy xususiyatlariga ko‘ra rivojlantirish imkoniyatlari aniqlangan hamda uni rivojlantirish modelining falsafiy mexanizmlari asoslab berilgan;

inson kapitali ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tavsiflangan va O‘zbekiston sharoitida inson kapitalini hududiy dinamik rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma‘lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g‘oyalardan inson kapitalini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etish, ijtimoiy-madaniy va etnomadaniy faoliyatining dinamik o‘zgarishlari hamda transformatsiyalashuv jarayonlarini ilmiy asoslashda, inson kapitalini hududiy imkoniyatlarni rivojlantirish, metodologik yondashuvlarni takomillashtirishda, inson taraqqiyoti indekslarini joriy etish, ilmiy, ijtimoiy, ta‘lim, jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirishda nazariy-metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari amaliy ahamiyati mamlakatimizning xalqaro tashkilotlarning “inson kapitali” rivojlanish indeksi reytingida munosib o‘rin egallashida, tegishli tashkilotlar faoliyatida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda, ijtimoiy turmush tarzi hamda mental xususiyatlariga ko‘rsatadigan ta’sirlarga asoslanib, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy loyiha va innovatsiyalarni hududlarga yo‘naltirishga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirishda, xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashning yangi mexanizmlarini joriy qilish, 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga erishilishini ta‘minlash chora-tadbirlarni amalga oshirish faoliyatida hamda “Barqaror rivojlanish”, “Ijtimoiy ishning xorijiy mamlakatlar tajribasi”, “Global inqirozlar davrida ijtimoiy ish” fanlaridan o‘quv-metodik bazani takomillashtirishda, ma‘naviyat va ma‘rifat markazlari faoliyatida, OAVda inson resurslari va uning muammolariga oid ko‘rsatuvlarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Inson kapitalini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish hamda zamonaviy mexanizmlarini aniqlash doirasida olib borilgan tadqiqot natijalaridan:

inson kapitalini rivojlantirish va barqaror taraqqiyotga erishishda zamonaviy umummetodologik, gnoseologik qarashlar va yondashishlarda berilgan intellektual, ta‘lim, axloqiy, ramziy va ijtimoiy kapital omillarning Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot asoslariga moslashtirish darajalari (shaxslar, ijtimoiy guruhlar, davlat) hamda o‘zaro sherikchilik, birlashish, inson salohiyati, ehtiyoj kabi komponentlariga doir ilmiy yangilik va xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Buxoro” teleradiokanalining 2023-yilda efirga uzatilgan “Islohotlar amalda”, “Ijod mahsuli” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Buxoro” teleradiokanalining 2023-yil 12-iyuldagi 02/09-195-son ma‘lumotnomasi).

Natijada, Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy o‘zgarishlar keng miqyosli ijtimoiy jarayonlar orqali aholi turmush tarzining farovonlashuvi, inson kapitalining yuksalishi hamda ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy birdamlikdan iborat o‘ziga xos munosabat shakllarining amal qilishi bo‘yicha teletomoshabinlarga kerakli ma‘lumotlarni olish imkoniyatini berib, ko‘rsatuvlarning ilmiyligi va ommabopligini ta‘minlashga xizmat qilgan;

Yangi O‘zbekistonda aholi turmush tarzining farovonlashuvi hamda ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy birdamlikdan iborat o‘ziga xos munosabat shakllarining amal qilishida inson kapitalini rivojlantirishning (inson kapitalini rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish, ta‘lim-tarbiyaga investitsiyalar kiritish, zamonaviy kasb-hunarga qiziqtirish, mehnat bozorida raqobatbardosh soha mutaxassislarini bilim va ko‘nikmalarini optimallashtirish, milliy inson kapitali o‘lchovini aniqlash metodologiyasini ishlab chiqish yo‘nalishlari asosida) ijtimoiy modelini yaratish zaruratiga doir xulosalar va ilmiy yangiliklaridan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida, xususan, 2023-yil may oyida “Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash” shiori ostida hamda 2023-yil iyun oyi “Yoshlar oyli” doirasida tashkil etilgan “Yoshlar festivallari”ni yuqori saviyada tashkil etishda va ma‘naviy-tarbiyaviy sohada o‘tkazilgan targ‘ibot tadbirlari dasturlarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 2023-yil 18-iyuldagi 4-13-21-1940-son ma‘lumotnomasi). Natijada, yoshlarning yuksak ma‘naviyatga va ma‘rifatga ega bo‘lishlari mamlakatning har tomonlama rivojlanishiga o‘zining ta‘sirini ko‘rsatishi hamda ma‘naviyat va ma‘rifatga tayangan mamlakatda tinchlik hukmron bolishi va barqarorlik taraqqiy qilib borishi, ma‘naviy jihatdan yuksalish davlatning kuch-qudratini ta‘minlashning muhim omillaridan ekanligini asoslashga xizmat qilgan;

rivojlanish va barqaror taraqqiyotni ta‘minlashda ijtimoiy harakat, ijtimoiy munosabatlar, uzoq va sog‘lom umr ko‘rish, hayot farovonligi standartlarining katolizator sifatidagi o‘rni inson kapitalining madaniy-axloqiy, salomatlik (biofizik), mehnat, ta‘lim, intellektual va tashkiliy-tadbirkorlik kapitali omillari bilan bog‘liqligiga oid ilmiy xulosalar va takliflardan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi faoliyatida, jumladan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ni amalga oshirish, partiya tizimidagi xodimlarning siyosiy-huquqiy, ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish, o‘quv-uslubiy hamda mafkuraviy targ‘ibot ishlarida foydalanilgan (O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Markaziy kengashining 2023-yil 17-iyundagi 02/02-34-1-son ma‘lumotnomasi). Natijada, barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsadlarning amalga oshirilishi jamiyatning izchil rivojlanishiga, “inson qadri uchun” tamoyili asosida xalq farovonligini oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ta‘sirchanligini oshirish, turmush sifatining yaxshilanishiga, ijtimoiy adolat, qadriyatlarga hurmat va fuqaro erkinliklarini ta‘minlash sohasida bilim va ko‘nikmalarning kengayishiga xizmat qilgan;

inson – jamiyat – davlat imkoniyatlari (shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari, ijtimoiy xarakterdagi intiluvchanlik, ijtimoiy institutlar) inson kapitalini rivojlantiruvchi ijtimoiy institusional tizimlarning ijtimoiy-ma'naviy sohada tizimlilikni ta'minlash, islohotlar samaradorligini oshirishda yagona maqsad, milliy g'oya yo'lida jipslashtirish, milliy taraqqiyot borasida yoshlarning mas'ulligi, daxldorligini oshirish, taklif-tashabbuslariga keng yo'l ochish, xotin-qizlarning tashabbus va faoliyati qadrlanadigan ma'naviy-huquqiy muhitni barpo qilish kabi dinamik ko'rsatkichlarda ifodalanishiga doir yangiliklaridan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170928696-raqamli "O'zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi (Harakatlar strategiyasi asosida)" (2018-2020 yy) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 9-sentabrdagi 04/11-5433-son ma'lumotnomasi). Natijada, yangiliklar va tavsiyalar loyiha doirasida nashr etilgan ishlarda o'z aksini topgan va inson kapitalini ijtimoiy-madaniy hodisa hamda xususiyat sifatida asoslash, uning O'zbekiston sharoitida hududiy dinamik rivojlanish ta'sirini aniqlab borish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 136 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Falsafada "inson kapitali" tushunchasini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlanib, mazkur tushunchaning mazmun-mohiyati va qonuniyatlari, inson kapitalini falsafiy tadqiq etishda milliy va ijtimoiy-etnik jarayonlarning ahamiyati, inson kapitali masalalarini tadqiq etish monitoringi va ijtimoiy-falsafiy tendensiyalari tahlil etilgan.

Inson salohiyatini baholashda “inson kapitali”, “ijtimoiy kapital”, “ijtimoiy faoliyat” yondashuvlari, ularning tarkibiy qismlariga tayanilib, shaxs imkoniyati hamda jamoalarning ehtiyoj zaruriyati, qobiliyatlariga tayanilib bajariladigan ijtimoiy rollar va funksiyalarning istiqbolli tayyorgarlik tizimlari tahlil etiladi.

Dissertatsiyada inson kapitalining asosi bo‘lgan moddiy jamg‘arma, bilim, hunar, mahorat, ijtimoiy aloqalar, nufuz kabi ijtimoiy qadriyatlar tizimiga egalik hamda iqtisodiy manbalar, xususan, ko‘chmas mulk, aksiya, innovatsiyalar, xususiy biznes kabi omillarning zamonaviy tendensiyalarini ifodalovchi omillar tadqiq etilgan. Inson kapitali yoki salohiyatning mohiyati va tarkibini talqin etish masalasi nuqtayi nazardan tadqiqotchilarni ikkita guruhga bo‘lish mumkin. *Birinchi guruh* vakillarining fikriga ko‘ra, salohiyat atamasi avvalo, ijtimoiy ishlab chiqarish tizimi rivojlanishining erishilgan darajasini anglatadi¹³. *Ikkinchi guruh* vakillari esa salohiyatning bir nechta darajasini, jumladan, erishilgan salohiyat va istiqboldagi salohiyatni ajratish kerakligini uqtirishadi¹⁴. Bunda erishilgan salohiyat, ijtimoiy tizimning mavjud unsurlari yig‘indisi tushuniladi. Istiqboldagi salohiyat tushunchasiga esa tizimning hali amalga oshirilmagan imkoniyatlari kiradi.

Tadqiqotchi inson kapitali tushunchasi borasidagi fikrlarni tahlil qilar ekan, – bu ijtimoiy hayotga joriy qilingan turli investitsiyalarning individual va ijtimoiy omillar natijasida yuzaga kelgan, ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar va ma’naviy-madaniy shart-sharoitlar yaratilishiga turtki bergan va eng muhimi teran anglangan salohiyatlar majmui bo‘lib, shaxs tomonidan qo‘lga kiritilgan bilim, kasb afzalliklaridan foydalana olish, boshqalarga o‘rgatish hamda bu afzalliklarni istiqbolga yo‘naltira olish salohiyatini ifodalashini ta’kidlaydi.

Inson kapitali uchun maxsus element sifatida ta’lim belgilanadi va uning asosiy qismlari to‘rt komponent birlashmasidan – madaniy va etnik xususiyatlar, umumiy ta’lim, kasb-hunar ta’limi, asosiy malakadan tashkil topadi. Ta’limga yo‘naltirilgan investitsiya nafaqat mamlakatni rivojlantirishning maxsus strategiyasi, balki inson kapitali va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarni yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatdir. Buning natijasida inson kapitali takomillashib, moddiy farovonlik va sog‘lom turmush tarziga erishiladi. Inson kapitali har bir insonning individual boyligi bo‘lib, qobiliyat, bilim, ko‘nikma va tajribaga asoslanadi va har bir yoshning shaxsiy mulki hisoblanadi.

Dissertant fikrifa ko‘ra, yoshlarni yuqori malakali kasb sohiblari etib tarbiyalash bugun Yangi O‘zbekistonning ustuvor davlat siyosatiga aylandi. Jamiyat qanday bo‘lsa, ijtimoiy munosabatlar majmui hisoblangan inson kapitali ham unga mos bo‘ladi. Inson kapitali rivoji shaxsning ongi, odob-axloqi, ma’naviyati, dunyoqarashi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va tabiatiga bevosita bog‘liq. Inson aql-idrok sohibi bo‘lgani bois, real dunyodagi voqealarni tushunadi, ilmu-tafakkuri, mehnati, salohiyati bilan dunyoni boshqaradi. Inson kapitalining yuksalishiga uni o‘rab turgan ijtimoiy muhitda ro‘y berayotgan jamiki voqealar ta’sir ko‘rsatadi.

¹³ Проскуряков В.М., Самоукин И.А. Экономический потенциал социальной сферы: содержание, оценка, анализ. – М.: Экономика, 1991. – С. 6-7.

¹⁴ Полкова Т.В. Методологические подходы к формированию и развитию человеческого потенциала. – Екатеринбург: Институт экономики УрОРАН, 2006. – С. 28.

Dissertatsiyada inson kapitali keng ma'noda iqtisodiyot, jamiyat va oila rivojlanishining intensiv ishlab chiqaruvchi omili, shu jumladan, ishchi kuchining bilim va malakali intellektual qismi, boshqaruvchi mehnat vositalari, atrof-muhit va mehnat faoliyatlarining yig'indisi ekanligi qayd etilib, *inson kapitaliga qisqacha – aql, sog'liq, bilim, sifatli va samarali mehnat va hayot sifati* deb ta'rif berish mumkinligi ta'kidlangan. Kapitalning jismoniy kapital, moliyaviy kapital, tabiiy kapital, intellektual kapital va inson kapitali hamda kapitalning ba'zi boshqa turlarini ajratib ko'rsatilgan.

Milliy boylikka jismoniy, insoniy, moliyaviy va tabiiy kapitallar kiradi. Inson kapitali aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash, intellektual faoliyatga sarmoyalar kiritish orqali shakllantiriladi. Shu jumladan – ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, ilm-fan, ishbilarmonlik qobiliyati va muhiti, samarali elitani shakllantirish, fuqarolik, biznes xavfsizligi va iqtisodiy erkinlik, shuningdek, madaniyat sohasida, badiiy va boshqa tarkibiy qismlar vositasida ham rivojlantiriladi. Inson kapitalini boshqa davlatlardan kirib kelgan malakali kadrlar va mablag'lar hisobiga ham shakllantirish mumkin. Inson kapitali jamiyat hayotining barcha sohalarida mehnatning sifati va unumdorligini oshirishga hissa qo'shadi va qo'llab-quvvatlaydi. Inson kapitali rivojlanishining asosiy omillari raqobat, sarmoya va innovatsiyalardir. Milliy inson kapitali – mamlakat milliy boyligining ajralmas qismi bo'lgan inson kapitalidir. Milliy inson kapitali ijtimoiy va siyosiy kapitalni, shuningdek, milliy intellektual ustuvorliklar, milliy raqobatbardosh ustunliklar va millatning tabiiy salohiyatini o'z ichiga oladi.

Dissertatsiyada inson kapitalining ijtimoiy-falsafiy talqinlari uni ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tushunishga ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. Inson kapitali zamonaviy iqtisodiyotda investitsiyalarning juda muhim turi hisoblanadi. Inson kapitali jismoniy kapitaldan keskin farq qiladi. Avvalo, u insondan ajralmas, uni sotib olish mumkin emas. Uni faqat ma'lum sharoitlarda olish yoki foydalanish uchun taqdim etish mumkin. Ikkinchidan, bilim va ko'nikmalarni egallash mumkinligi va qo'shimcha sarmoyasiz, lekin ish joyida o'qitish orqali amalga oshadi. Shu bilan birga, inson kapitali ham jismoniy kapital kabi jismoniy va ma'naviy tanazzulga yuz tutadi. Vaqt o'tishi bilan insonning imkoniyatlari (jismoniy, aqliy, psixologik va h.k.) kamayib ketishi, bilimi kamayib ketishi, ularning tashuvchisi degradatsiyaga uchrashi, bilimning o'zi shunchaki eskirib qolishi mumkin.

Tadqiqotchi fikricha, o'ziga xos inson kapitali bu – olingan joyda qimmatli bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmuidir. Mavjud sosiumda harakat qiladigan ko'plab investitsiyalar (xususiy va ijtimoiy shakllariga ko'ra) natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy shart-sharoitlar kishilardagi daromad hamda foyda afzalliklari, shuningdek, ularning faoliyatlaridagi ehtiyoj hamda qobiliyatlari namunalari tizimini ifodalaydi¹⁵.

Insonning intellektual va amaliy salohiyatining ahamiyati hamda inson kapitali konsepsiyasining ilk tamal toshlarini qo'ygan A.Smit insonni 11 ijtimoiy boylikning

¹⁵ Алиева Э.И. Сущность социального капитала и его значение в развитии экономики // Экономическая наука. Инвестиция: практика та досвид. – 2013. – №14. – С. 76-77.

bir qismi va ishlab chiqarishning pirovard maqsadi, deb bilgan¹⁶. XX asrga kelib esa bu tushuncha “inson kapitali” deb ataluvchi umuminsoniy va umumiqtisodiy qadriyat shaklini oldi. Chunki falsafa fanining ajralmas qismi hisoblangan turli etnik muhitdagi ijtimoiy jarayon va hodisalarni, shuningdek, u bilan bog‘liq etnik madaniyat, an’analar hamda millatlararo munosabatlarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu soha falsafa bilan etnologiya, etnografiya fanlari o‘rtasidagi vosita va chegaralarni belgilaydi yoki aniqlaydi. Falsafaning boshqa tarmoq yo‘nalishlariga nisbatan ancha kech paydo bo‘lgan ijtimoiy nazariy jihatdan etnik guruhlarining rivojlanishi va faoliyatining ijtimoiy jihatlari, ularning o‘ziga xosligi, manfaatlari va o‘zini o‘zi tashkil qilish shakllari, undagi jamoaviy xulq-atvorning xususiyatlari kabi munosabatlarni o‘rganadi.

Dissertant inson kapitalining mavjudlik qonuniyatlarini tahlil qilish asosida rivojlangan demokratik davlatlar ijtimoiy soha olimlarining nazariy qarashlarini bir tizimga keltirgan va uni quyidagicha tavsiflagan:

birinchidan, inson kapitalini rivojlantirishda mehnat muhim ahamiyatga ega bo‘lib, inson ong-u tafakkurdagi rivojlanish hamda yangicha dunyoqarashlar shakllanishini ham ta’minlaydi;

ikkinchidan, inson kapitali bu nafaqat tovar, balki xizmatlarni ishlab chiqarish qobiliyati bo‘lib, inson kapitalining qiymati shunchaki ishlab chiqarish qobiliyati narxiga, undagi qobiliyat miqdoriga ko‘paytiriladi;

uchinchidan, inson zaxirasi imkoniyatlari muayyan hududda istiqomat qiluvchi va o‘ziga xos sifat xususiyatlariga ega bo‘lgan turli avlodlarning miqdor ko‘rsatkichlari bo‘yicha umumiylikini tavsiflovchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilinadi;

to‘rtinchidan, inson salohiyatining rivojlanishi hamisha ham bir xil kechmaydi. Bunda o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan ichki va tashqi omillar ta’sir qilishi va o‘zgarib turishi mumkin;

beshinchidan, inson kapitali ham jismoniy kapital kabi uzoq muddatli ne‘mat hisoblanadi. Ammo u ham ma’naviy, jismoniy eskirishi mumkin. Taklifning o‘zgarishiga qarab uning qiymati ko‘tarilishi va tushishi mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Inson kapitali: dinamika va davriy transformatsiyalashuv**” deb nomlanadi. Mazkur bobda inson kapitalini shakllantirishning falsafiy jihatlari, inson kapitali zamonaviy sivilizatsiyani rivojlantiruvchi eng muhim shartlaridan biri ekanligi, inson kapitali hamda ijtimoiy hamkorlik tushunchalarining o‘zaro dialektik aloqadorligi, yoshlarda bilim, dunyoqarash va ma’naviyat asoslarini shakllantirish inson kapitalini rivojlantirishning muhim omili ekanligi ilmiy-falsafiy tadqiq qilingan.

O‘zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda ijtimoiy soha olimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar alohida e’tirof etilib kelinmoqda. Ayniqsa, inson kapitali yo‘nalishidagi tadqiqotlar bu borada muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda inson fenomenini o‘rganish nafaqat global texnik-iqtisodiy muhitning tor doirasi bilan, shuningdek, hududiy

¹⁶ Усмонов Б.Ш., Қодиров М.К., Элтазаров Ж.Д. Инсон капиталининг шаклланишида таълим ва илм-фаннинг роли (илмий-оммабоп рисола). – Самарқанд: СамДУ, 2015. – Б. 27.

elementlarni o'zida qamraydigan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillar bilan ham tadqiq etila boshlandi. (Qarang: 1-rasm).



1-rasm. Inson kapitali rivojlanish darajalari va ko'lami

Tadqiqotchi fikricha, inson kapitali tushunchasining ijtimoiy-falsafiy genezisini aniqlash va uning ijtimoiy hodisa sifatida innovatsion rivojlanish jihatlarini o'rganish, inson kapitali muammosini ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida tadqiq qilish, inson kapitali omiliga "madaniyat" tushunchasining ta'siri kabi masalalar ham muhim ahamiyatga ega.

Har bir qo'shimcha ta'lim yili inson daromadini o'rtacha 10 foizga oshiradi. Ta'lim sifati ham muhim. Ammo kognitiv qobiliyat inson kapitalining yagona ko'rsatkichi emas. Jasorat, iroda va halollik kabi ijtimoiy-emotsional qobiliyatlar odatda iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Inson salomatligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, mehnat samaradorligi inson salomatligi bilan bevosita bog'liq. Professor Q.X.Abdurahmonovning fikricha, "Inson kapitalini ahamiyati tabiiy resurslar, moddiy boylik va vositalarga qaraganda yuqoriroqdir"¹⁷.

Ijtimoiy hamkorlik nazariyasi zamonaviy jamiyatlarning oldinga harakatlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu ayni paytda bugungi kunda fuqarolik jamiyati nazariyasiga ham tayanadi. Shu ikki nazariyaning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratish o'zaro bog'liq tamoyillardan kelib chiqib, ijtimoiy jarayonlar taraqqiyotini muvofiqlashtirish imkonini beradi. "Ijtimoiy hamkorlik bu, ijtimoiy mehnat sohasida ishchilar, ish beruvchilar (tadbirkorlar), davlat hokimiyati va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari manfaatlarining muvofiqligi va muhofazasini o'zaro shartnomaga intilish, konsensusga erishish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning muhim yo'nalishlari bo'yicha yagona pozitsiyani ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlarning sivilizatsiyalashgan shaklidir"¹⁸.

Dissertant ta'kidlashicha, jamiyatda qashshoqlik darajasi bevosita inson kapitalini rivojlantirishga bo'lgan munosabatning dixotomik ko'rinishi sifatida

¹⁷ Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. – Тошкент: Меҳнат, 2009. – Б. 182.

¹⁸ Худойбердиева А. Фарб фалсафасида ижтимоий стратификация ва ижтимоий ҳамкорликнинг ўзаро боғлиқлиги. Дисс..автореферати. – Бухоро. 2023. – Б. 14.

namoyon bo'ladi. Albatta, qashshoqlik shunchaki pul yo'qligini anglatmaydi. Bilimlar jamiyatdagi mavjud imkoniyatlardan foydalanishni, ko'nikma-malakalar esa ijtimoiy taraqqiyot va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Bu hodisa doimiy ravishda ta'limni moliyalashtirib borishni talab etadi. Inson kapitali ahamiyatini bir nechta turli usullarga asosan baholash mumkin. An'anaga binoan ta'lim olgan odamlarning daromadi bilan hisoblashadi. Ta'limga kiritiladigan sarmoyalar ham jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishi mumkin. Aksariyat mamlakatlarda nisbatan o'ziga to'q oilalarda tug'ilgan farzandlar bolalikdanoq keng imkoniyatlardan foydalanishni boshlaydi va u butun umri davomida qator afzalliklarni, qulayliklarni qo'lga kiritadi. Aksincha, nochor oilalar farzandi shunday imkoniyatlardan bebahra qoladi¹⁹.

Tadqiqotchi mulohazalariga ko'ra, inson kapitalini yakka shaxs miqyosida olib qaraganda asosiy investori – mazkur kapital egasining o'zidir. Inson kapitaliga investitsiya kiritish ishonch darajasini oshiradi. O'qimishli insonlar boshqalarga ko'proq ishonadi, ishonch darajasi baland bo'lgan jamiyat odatda nisbatan yuqori iqtisodiy o'sishga erishadi. Mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish sohasini optimallashtirish natijasida yangi ijtimoiy muhit, yangi ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga asoslangan inson kapitali paydo bo'ldi.

Ijtimoiy kapital va resurslar manbalarining vujudga kelishida oilaning roli beqiyosdir. Oilada ota-onaning salohiyati orqali oilaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini realizatsiya qilish amalga oshadi. O'z navbatida sog'lom oila va farzandlar davlat uchun investitsiya hisoblanadi. Oilada inson kapitalini shakllantirish, uning rivojlanish manbalari va omillarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir oila ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xos tarzda aks ettiradi. Oilaning bolaga ta'siri spesifik bo'lgani uchun uning ma'naviy-axloqiy qiyofasi shakllanishi ham o'ziga xos va takrorlanmasdir.

Inson kapitalini rivojlantirishda ijtimoiy kapital o'choqlaridan biri bo'lgan mahalla muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston tajribasida inson omili va ijtimoiy kapital masalalarini belgilab berishda mahallaning o'rni beqiyos. Odatda mahallaga ijtimoiy institut sifatida yondashiladi. Mahalla o'z funksiyasi orqali a'zolarining jamiyat hayotidagi ijtimoiylashuvini ta'minlaydi hamda jamiyatdagi me'yor va tartiblarga amal qilishga chorlaydi. Zero, "Bundan buyon faoliyatimizni mutlaqo yangicha, ya'ni "inson – jamiyat – davlat" tamoyili asosida tashkil etamiz. Bu maqsadga erishish uchun esa dunyodagi noyob demokratik tuzilma bo'lgan mahalla institutining katta imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning vakolatlarini yanada kengaytirish, pirovard natijada mahallani jamiyatimizning hal qiluvchi bo'g'iniga aylantirish vazifasini oldimizga qo'ymoqdamiz. Muxtasar aytganda, mahalla tinch bo'lsa, yurt tinch bo'ladi. Mahalla obod bo'lsa, butun mamlakat obod bo'ladi"²⁰.

